



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 24-iyun

VII-12-96-6-0-K/25

Namangan viloyati

Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi yuzasidan ochiq muhokama o'tkazish ishlarini tashkillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi 781-son qonuniga asosan Yangiqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Mamay hamda Olmazor mahalla fuqarolar yig'inlarida joylashgan, mulkdorlarning yer uchastkalarini olib qo'yish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ-274-sonli qarorining 1-ilova 9-bandida 2025-2026-yillarda qurilish ishlarini yakunlash, foydalanishga topshirilishi va qabul qilinishini ta'minlash ishlarini olib borish uchun Uchqo'rg'on tuman Sanoat MFY hududidagi Sport vazirligiga qarashli "Voleybol sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab internati" atrofida joylashgan 7 nafar fuqarolarga tegishli bo'lgan uy-joylarni buzish maqsadida yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha tashabbusni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tuman hokimliklarining:

Uchqo'rg'on tuman hokimligining Uchqo'rg'on tumanining Sanoat MFY Baynalminal ko'chasida joylashgan 7 ta turar joy yer maydonlari mulkdorlarning yashash xonadonlari yer uchastkasini olib qo'yish;

Yangiqo'rg'on tuman hokimligining Yangiqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Mamay hamda Olmazor mahallalarida joylashgan 17 ta turar joy va 1 ta dehqon xo'jaligi yer maydonlari jami 18 ta mulkdorlarning yashash xonadonlari, dehqon xo'jaligi yer maydonlarini olib qo'yish bo'yicha tashabbuslari ma'qullansin.

2. Uchqo'rg'on tuman hokimi (D.Mirxanov), Yangiqo'rg'on tuman hokimi (A.Najmiddinov)larga:

yer maydonlarini olib qo'yish bo'yicha mulkdorni to'liq o'rgangan holda ochiq muloqotda ishtirokini ta'minlash, ochiq muloqot yakuniga ko'ra amaldagi tartib qoidalari asosida tuman bayonnomasini tuzish, bayonnomaga ochiq muhokamada ishtirok etgan tashabbuskor hamda huquq egalarining (ular vakillarining) ro'yxati, shuningdek, ochiq muhokama jarayonining audio va video yozuvi ilova qilinishini to'liq ta'minlash, ochiq muloqot tarzida tayyorlangan bayonnomani xalq deputatlari viloyat Kengashiga taqdim etish vazifalari yuklansin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni ichida viloyat hamda Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tuman hokimliklariga yuborilsin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari I.Raxmatov ushbu qaror viloyat hamda Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tuman hokimligining rasmiy veb-saytlarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimliklarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida to'liq hajmda e'lon qilinishini ta'minlasin.

6. Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta'minlash Uchqo'rg'on (D.Mirxanov) va Yangiqo'rg'on (A.Najmiddinov) tumanlari hokimlari zimmalariga yuklansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikramov hamda viloyat hokimining o'rinbosari G'.Djamalov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



MUMINOV SOLIJON
DJALILOVICH